

INKLUZIV TA'LIM JAROYONIDA OILA, MAKTAB HAMKORLIGI, JAMOATCHILIKNING O'RNI

G.M.Gaipova Xorazm viloyati Gurlan tumani

35-UOT maktabi amaliyotchi psixologi

Kenjayeva Sevara Ro'zimboy qizi

Xorazm viloyati Gurlan tumani

15-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Maqolada maktabda inklyuziv ta'lim olayotgan o'quvchining ota-onasi bilan olib boriladigan ishlar xususida so'z boradi. Jumladan bu borada ota-onalar klubini tashkil etish va o'quv seminarlar uyishtirish maqsadga muvofiq ekanligi haqida so'z yuritiladi. Ota-onalar bilan ishlashning funksiyalari va ish usullari xususida batafsil fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: egosentrizm, infantilizm, ijtimoiy reabilitatsiya

So'nggi yillarda jamiyatimizda nogiron kishilarga munosabati tubdan o'zgarib bormoqda, jamiyatning teng huquqli a'zosi deb tan olinsa ham baribir o'ziga yarasha muammolari mavjud.

Nogiron bolalarning eng katta qismi asosan to'liq bo'lmagan oilalarga to'g'ri kelarkan, bunday bolalarning oilada tug'ilishi oilada tushkunlik, stress holatlariga olib keladi. Ayniqsa aqliy zaif bolalarning oilada tug'ilishi oiladagi larning, bolalarning sog'ligiga putur yetkazishi mumkin. Xo'sh alohida ta'lim ehtiyojiga zarur bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilarkanmiz maktab, oila, jamoatchilik bilan qanday ishlar olib borishimiz zarur?

Ota-onalar nogiron bolalarini o'qitishni albatta hohlashadi, bolaning asabiylashuvidan, egosentrizmdan, aqliy infantilizmdan qochib mashg'ulotlarga jalb qilgisi, keyingi mehnat faoliyati uchun o'qitishni istashadi.

Nogiron bolalarni tarbiyalayotgan oilalar bilan ishlashning yagona yo'li bu ota-onalar klubini tashkil qilishdir. Bunday klublarning yaratilishi ota-onaning yo'lg'iz emasligiga ishonchni kuchaytiradi, bilim, tajriba, foydali ma'lumotlardan xabardor bo'lishadi. Ota-onalar klubi quyidagi masalalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

-ota-ona o'z farzandining "kasallik" tushunchasidan uzoqlashib rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tishi;

-bolaning shaxsiy, ijodiy va ijtimoiy resurslarini imkon darajada oshkor qilish;

- ota-onalar va ular bilimlarning o'zaro munosabati, tajriba boyitish bo'yicha sheriklik munosabatlarini shakllantirish;

Ota-onalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi, konstruktiv xulq-atvor rivojlanishiga ko'maklashish;

- bolaning rivojlanishi bo'yicha individual konsultatsiyalar berish;
- yashash manzilidan boshqa joylarda tadbirlar tashkil etish, teatrlarga, muzeylarga, ko'rgazmalarga borish;
- o'quv seminarlar tashkil qilish;
- psixoiogik treninglar, ommaviy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil qilish;

Eng asosiy masala maktab ,oila jamoatchilik hamkorligi asosida bolaning maktabga moslashishi, o'zini sog'lom bolalar qatorida o'tirib o'zini sog'lomdek his qilishi, o'zini erkin tutishi va o'zini baxtli his qilishi zarur

Oila bilan ishlashning quyidagi funksiyalari mavjud

Xavfsizlik va himoya funksiyasi: bu bolalar hayoti xavfsizligini ta'minlash, bolaning qonuniy huquqlarini himoya qilish, unga shoshilinch yordam ko'rsatish

Profilaktik funksiya: maktab, jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda nochor oilalarni erta aniqlash, oiladagi nizolarni hal qilishga ko'maklashish, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish

Qayta tiklash funksiyasi: oiladagi bolaning yashash sharoitini yaxshilash, funksional yetishmovchiligini yengishga tayyor oilaning say-harakatini qollab quvvatlash

Tuzatish va rivojlanish funksiyasi: kompleks diagnostika asosida bolalar va ularning oila a'zolari bilan tibbiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik ishlar rejasini tuzish
Sog'lomlashtirish funksiyasi: bolalarning sog'ligini qollab quvvatlash bo'yicha tavsiyalarni o'z zimmasiga olish

Kompensatsiya funksiyasi: Bu biologik oilani almashtirish usullarini topishdan iborat, agar bolani undan begonalashtirish yengib o'tish imkonsiz bo'lsa

Maktab, oila, jamoatchilik birgalikda faoliyat yuritar ekan, quyidagi ish usullaridan foydalanish mumkin. Bularga ishontirish usuli, kuzatish usuli, suhbat usuli kiradi

Ishontirish usuli- ota-onalarni ularning ijtimoiy bo'lmagan xatti-harakatlari oqibatlariga ishontirishga yordam beradi. Ushbu usul yordamida ota-onalarning o'zlari ushbu vaziyatdan chiqish yo'lini izlashni boshlashlarini ta'minlash mumkin

Kuzatish usuli- oilada tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun ko'proq mateiallar to'plashga yordam beradi. Ijtimoiy o'qituvchi bolaning muloqatini, oilada, maktabda, sinfda, tengdoshlari bilan o'zini tutishini va bo'sh vaqtini kuzatadi

Suhbat usuli- ota-onalar bilan ishlashda, maxfiy muhitda, oiladagi muammolarning sabablarini aniqlashga va ularni hal qilish usullarini belgilashga imkon beradigan eng keng tarqalgan usullardan biridir

Bundan tashqari maktab o'qituvchisi bolaning uyiga tashrif buyurganida oiladagi yashash sharoiti, uyning tashqi ko'rinishi, va atrof muhitga e'tibor beradi, oilasi bilan uchrashuvda nafaqat onasini, otasini, boshqa bolalarni, katta yoshdagi oila

a'zolarini ko'rishga harakat qiladi,ota-onalarning muammolari to'g'risida bilib oladi,bolaning maktabdan tashqari vaqtda nimalar bilan shug'ullanishi to'g'risida bilib oladi,ota-onalar savollariga javob beradi.Oilada bolaga qanday munosabatda ekanligini o'rganadi.

